

Mavzu: **Matn**

Aa Lt hurar, karvon o'tar.*

karvon



***karvon** – uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, izma-iz boruvchi jonzo'tlar, aravalar (mashinalar) va ularni boshqaruvchi shaxslar qatori




1-mashq. Matnga mos ta'riflarni tanlang. Tanlovingizni tushuntiring.

- Matn bitta gapdan iborat bo'ladi.
- Matndagi gaplar ma'no jihatdan o'zaro bog'lanadi.
- Matnga sarlavha qo'yish mumkin.
- Matndagi gaplar bir-biri bilan bog'lanmaydi.



2-mashq. Chizmani ko'rib chiqing, xulosalang.



**3-mashq.** O'qing, matn turini aniqlang. Javobingizni asoslang.

Kecha men sirkka borib, haybatli yo'lbarslarning chiqishlarini tomosha qildim. Ularning chaqqonligini ko'rib, qoyil qoldim! Yirtqichlar avval orqa oyoqlarida tik turishdi, so'ng bir shohsupadan boshqasiga halqalar orasidan epchillik bilan sakrab o'tishdi. Tomoshabinlar har bir muvaffaqiyatli sakrashdan so'ng o'z hayratlarini yashira olmay, qizg'in olqishlashdi. Ushbu hayajonli tomosha xotiramda uzoq vaqt unutilmas taassurot qoldiradigan bo'ldi.

Kecha men sirkda bo'lib, yo'lbarslarni ko'rdim. Ular juda chiroyli va baquvvat hayvonlar ekan. Yorqin, yo'l-yo'l mo'ynasi chiroqlar ostida yaltirar, yashil ko'zlari esa xuddi olovdek yonardi. Panjalari juda baquvvat. Yo'lbarslar na'ra tortganda ularning o'tkir, oppoq qoziq tishlari ko'rinar ekan. Ularning bu viqorli ko'rinishi menda ham qo'rquv, ham cheksiz hayrat uyg'otdi.

Kecha men sirkda bo'lib, yo'lbarslarni ko'rdim. Qiziq, nima uchun bunday kuchli va haybatli hayvonlar o'rgatuvchiga bo'ysunishadi? Balki hayvon o'rgatuvchi ulardan qo'rqmagani uchundir? Yoki u yo'lbarslarga doim g'amxo'rlik qilib, mehr bergani uchunmi? Siz bu haqida nima deb o'ylaysiz? Ehtimol, bu yerdagi asosiy sir qat'iy intizom va o'zaro ishonchning o'ziga xos uyg'unligidadir.



**Matn uch qismdan iborat bo'ladi.**

1. **Kirish** – matnning dastlabki qismi. Unda kitobxon mavzu, voqea sodir bo'layotgan joy, vaqt yoki qahramonlar bilan tanishtiriladi.
2. **Asosiy qism** – matnning eng hajmli va markaziy qismi. Bunda voqealar rivoji so'zlab beriladi, narsalarning xususiyatlari tasvirlanadi yoki ilgari surilgan fikr dalillar bilan isbotlanadi.
3. **Xulosa** – matnni yakunlovchi qism. Bunda aytilgan fikrlarga yakun yasaladi, mantiqiy xulosa chiqariladi yoki natija ko'rsatiladi.



4-mashq. O'qing. Matn turini aniqlang. Matnning xulosa qismini ko'chiring.

Saxovatli fasl

Ona diyorimizga oltin kuz o'zining barakali sepini yoydi. Salqin kechalar, ertalab maysa-ko'katlar va dov-daraxtlar barglarini bezaydigan miltillovchi shudringlar kuz kelganidan darak bermoqda. Atrofda kuzning mayin va xushbo'y havosi ufurib, tabiat o'zgacha bir tarovatga burkandi.

Kuzning birinchi oyi mevalar, sabzavot mahsulotlari hamda tilyorar qovun-tarvuzlar serob bo'lishi bilan dillarga quvonch baxsh etadi. Dehqon va bog'bonlarimizning halol mehnati evaziga yetishtirilgan bu ne'matlar bozorlarimiz hamda xonadonlarimizga to'kinlik olib kirmoqda.

Bir-biridan shirin va totli ne'matlarni ko'rib, qalbimizda shukronalik tuyg'usi jo'sh uradi. Shu sababli ham xalqimiz kuzni bejiz rizq-ro'z, to'kin-sochinlik va saxovat fasli deb e'zozlamaydi. Tabiatning bu bebaho² tuhfalari har bir xonadonga fayz hamda quvonch bag'ishlaydi.





Matn turini aniqlash algoritmi

1. Matnni o'qing.
2. Matnda qaysi savolga javob berilayotganini aniqlang.
3. Savol va mazmunga qarab matn turini aniqlang.



5-mashq. a) Matn turlarini aniqlang. Hikoya matnini ko'chiring.



Hovlimizda Bo'ynoq laqabli juda chiroyli va baquvvat it bor. Uning qalin yungi, tikka quloqlari hamda porlab turadigan tim qora ko'zlari bir qarashdayoq e'tiborni tortadi. Mayin va halqasimon dumi xursand bo'lganida quvnoq likillaydi. Bo'ynoq juda aqlli, chaqqon va sadoqatli jonivor.



Anvar ko'l bo'yida qanoti yaralangan oqqushni topib, uyida parvarish qildi.⁵ Oqqush tez orada tuzalib, bola bilan do'stlashib qoldi. Kuz kelgach, u Anvarga minnatdorchilik bildirib, to'dasi bilan issiq o'lkalarga uchib ketdi.



Nima uchun xaritalardagi ko'plab orollar va joylar g'aroyib nomlar bilan atalishini hech o'ylab ko'rganmisiz? Chunki har bir geografik maskan u yerda sodir bo'lgan voqealar hamda boshdan kechirilgan sinovlarga qarab nomlangan. Ularning ortida insonlarning hayotiy tajribasi, mehnati va tabiat saboqlari yotadi.

b) Keyingi darsga "Shahrimdagi vokzal" mavzusida ma'lumot tayyorlang.

